O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDA ANTROPONIMLAR

Alimova E’tibor Karomat qizi
Termiz davlat universiteti
1-bosqich magistranti

Annotasiya: Maqolada o‘zbek xalq ertaklarida qo‘llanilgan antroponimlar birliklar o‘zbek xalqining turmush tarzi, milliy mentaliteti, urf-odatlari asosida shakllanganligi haqida fikr mulohaza bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Onomastika, antroponim, atoqli otlar, antroponimlar majmuiy guruhi.

Tildagi atoqli otlarni paydo bo‘lishi, motivativ asoslarini, semantikasi, lisoniy strukturasini tilshunoslikning onomastika bo‘limi tadqiq qiladi. Onomastika – aslida grekcha so‘z bo‘lib, “nom berish san’ati” ma’nosini bildiradi. N.B.Podolskaya onomastikani biror tildagi atoqli otlarning umumiy majmuini ifoda etadigan lug‘atdir va u muayyan davrdagi etnik guruhning tiliga tegishli bo‘lgan atoqli otlar repertuaridir deb ta’kidlaydi. Bundan tashqari tilshunos antroponim termini haqida fikr yuritar ekan, uning tarkibiga ism, familiya, laqab, taxallus, kriptonim (laqab, ism, nom) andronim, ginekonim, patronim kirishini qayd qilgan[1]. Jahon tilshunosligida atoqli otlarning xususiyatlari, vazifalari haqida qadimgi yunon olimlari Aristotel, Geraklit, Demokrit o‘z fikr mulohazalarini aytib o‘tganlar. Jumladan, Aristotel “Poetika” asarida otni nutq bo‘laklaridan biri deb hisoblaydi va unga quyidagicha ta’rif beradi: “Ot murakkab, ma’no anglatuvchi, zamonni bildirmaydigan, qismlari o‘z-o‘zidan ma’no anglatmaydigan so‘zdir”[2]. Geraklit esa “Har bir nom o‘zi anglatayotgan narsa, predmet bilan ajralmas aloqada, bog‘lanishda bo‘lib, nomlarda premetlarning mohiyati namoyon bo‘ladi, “ochiladi” degan g‘oyani ilgari surgan[3]. Mashhur ingliz mantiqshunos olimi J.S.Millning ta’kidlashicha, atoqli otlar hech qanday ma’no bildirmaydi, chunki ular faqat predmetni ko‘rsatadi, ammo ular haqida ma’lumot bermaydi degan fikrni ilgari surgan[4]. O‘z vaqtida Dj.Mill tomonidan asoslangan atoqli otlarda hech qanday ma’no elementi yo‘q, degan ilmiy qarash keyinchalik V.Bryondal, E.Boyssensom, L.Yelmslev kabi taniqli tilshunos olimlar tomonidan rivojlantirildi. Natijada ayrim olimlar, jumladan, daniya tilshunosi K.Togebyu atoqli otlar (jumladan, olmoshlar ham) semantik mazmunga ega bo‘lmaganligi uchun o‘zaro sinonimlardir. Shunga ko‘ra yakka individ, shaxs bir necha ismga, bir necha shaxslar esa bir umumiy ismga ega bo‘lishi mumkin (adashlar, familiyadoshlar: Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Botir Zokirov, Shukur Burxonov, Erkin Yusupov kabi biz bilmagan, biz uchun notanish boshqa shaxslar ham bor).

XX asrning 60-70-yillarida taniqli rus tilshunosi A. V. Superanskya atoqli otlarning tilshunoslikda (ayniqsa, chet el tilshunosligida) o‘rganilish tarixi bilan maxsus shug‘ullangan.[5] Olim atrofdagi real va noreal obyektlarni ifoda etadigan atoqli otlarni onomastik ko‘lam (onomastik majmua) tushunchasi ostida yoritar ekan, bu majmua tarkibiga kiradigan 19 tip atoqli otlarni keltirib o‘tgan.[6]

[1] Подолская Н.В. Словар русской ономастической терминалогии.М: Наука,1988. – С.96.

[2] Аристотель. Поэтика (поэзия санъати ҳақида). Русчдан М.Маҳмудов, У.Тўйчиевлар таржимаси.- Тошкент Адабиёт ва санъат нашриёти,1980.-Б. 41.

[3] Йўлдошев Б. “Ўзбек ономастикаси масалалари” танланма фанидан услубий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011. –Б. 18.

[4] Суперанская А.В. Обшая теория имени собственного. – М: Наука 1973.- С. 56-58.

[5] Суперанская А.В. Обши теория имени собственного. – М. Наука, 1973. – 366.

[6] Суперенская А.В. Келтирилган асар. – С. 144-145.

«Atoqli otlarning umumiy nazariyasi» nomli yirik tadqiqotini e'lon qildi. Shundan keyin ko'plab rus olimlari antroponim ya'ni atoqli otlarga oid bir qancha asarlar e'lon qilishishdi. Xususan, V.A.Nikonovning "Ism va jamiyat", Kovalikning "Ukrain tilida atoqli va turdosh otlar", A.D.Zeverevning "Atoqli otlar va turdosh otlar haqida" nomli asarlari e'lon qilindi. Atoqli otlarga oid turli xil qarashlar ularga oid muammolarning xilma xil ekanligini, hamda bu sohada ko'plab tadqiqot ishlari olib boorish kerakligini ko'rsatadi.

O'zbek onomastikasi yoki nomshunosligi o'tgan asrning 60-70-yillarida alohida ilmiy yo'nalish sifatida yuzaga keldi. Ayniqsa, bu sohaning antroponimika, toponimika, etnonimika kabi bir qator sohalarida juda barakali ishlar amalga oshirishdi. Masalan, o'zbek ismlari (antroponimlari) materiallari atroflicha o'rganildi, to'rtta nomzodlik dissertatsiyasi (E.Begmatov - 1965, G'.Sattorov - 1990, S.Rahimov - 1998, R.Xudoyberganov - 2007) himoya qilindi, E.Begmatovning "Kishi nomlari imlosi" (1970), "O'zbek ismlari imlosi" (1972), "O'zbek ismlari" (1991), "O'zbek ismlari ma'nosi" (1998; 2004; 2010), "Ism chiroyi" (1994) nomli kitoblari nashr etildi. O'zbek onomastika sohasining otasi sifatida mashhur bo'lgan tilshunos olim E. Begmatovning onomastik birliklarni ilmiy-nazariy hamda amaliy tadqiq qilishda tilshunoslikdagi xizmatlari beqiyos. Olimning bu boradagi monografik tadqiqotlari va bir qator maqolalarida o'zbek ismlarining lisoniy, sotsiolingvistik, etnolingvistik, nominatsion-motivatsion xususiyatlari nazariy hamda amaliy jihatdan chuqur va mukammal tahlil qilingan. Olim onomastik birliklar haqida quyidagi fikrni keltiradi. "Onomastika o'rganadigan til birliklari onoma(onim), ya'ni atoqli otning ko'rinishi va tiplaridir. Bular antroponim, toponim, zoonim, fitonim, kosmonim, teonim va boshqalardir. Quyidagi terminlar onomastik birliklarning har biri bir qator mikroonomastik birliklar majmuidan tashkil topgan".[7] Xususan, O'zbek tarixiy toponimikasi va antroponimikasi bo'yicha mamlakatimizda ayrim ishlar qilingan. Masalan, akademik B.Ahmedov, akademik A.Muhammadjonovning ayrim tarixiy toponimlar etimologiyasiga doir kuzatishlari, SH.Kamoliddinning O'rta Osiyodagi qadimgi turkiy toponimiyaga oid ishlari diqqatga sazovor. N.Husanovning XV asr yozma yodgorliklaridagi antroponimlarga, Sh.Yokubov va B.Bafoyevlarning Alisher Navoiy onomastikasiga, M. Turdibekovning Abulg'ozi Baxodirxonning "Shajarai turk" asari onomastikasiga, I. Xudoynazarovning o'zbek folklori onomastikasiga bag'ishlangan tadqiqotlari o'zbek nomshunosligida muhim ahamiyat kasb etadi[8]. Keyinchalik I.Mirzayev badiiy tarjimada kishi ismlari va geografik nomlarning berilishiga doir ayrim kuzatish ishlari olib bordi.

Lekin o'zbek tilidagi atoqli otlarning ba'zi tiplari shu kunga qadar deyarli o'rganilgan emas yoki kam tahlil qilingan. Bunday masalalar qatoriga kosmonimlar (astronimlar), mifonimlar, ktematonimlar, agnonimlar, nekronimlar, gemeronimlar, dokumentonimlar, oronimlar, tironimlar, pereytonimlar, xromonimlar, geortonimlar, siyeleonimlar fitonimlar, ekklezionimlar, ergonimlar, badiiy onomastika, onomastik uslubiyat, laqab va taxalluslar, onomastik birliklarning umumiy transkripsiyasi va transliteratsiyasi, nomshunoslikning amaliy va nazariy muammolari, jumladan, onomastik leksikografiya muammolari kiradi.

Shu bois mazkur maqolamizda xalq ertaklarida mavjud atroponimlarni tahlil qilishni maqsad qildik. O'zbek xalq ertaklarida onomastik birliklardan antroponim, toponim, zoonim, teonim, mifonim va boshqa shu kabi birliklar turli xil mavzu doirasi uchraydi. Ertaklardagi qahramonlarning ismlari orqali millatning urf-odatlari, ma'naviyati, totemistik, fetishistik

[7] Бегматов Э. Авлоқулоқ. Я. Ономастик кўлам тушунчаси //Ўзбек тили ва адабиёти. 2007 йил 3-сон. 17-21-бетлар; Ўша муаллифлар. Ўзбек ономастикасининг макро кўлами // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007 йил 5-сон. 33-39-бетлар; Ўша муаллифлар. Ўзбек ономастикасининг микро кўлами // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008 йил 1-сон. 15-18-бетлар.

[8] Магазаник Э.Б.Ономапоэтика или "говоряшиэ имена" б литературе. – Ташкент: фан, 1978. – 148 с.

qarashlarini bilib olish mumkin. Har bir onomastik birliklarning o‘ziga xos tarzda ifodalanishini, leksik-semantik, nominatsion-motivatsion xususiyatlari va funksiyalarini xalq ertaklari misolida tahlil qilishga harakat qildik. O‘zbek xalqida bolaga ism qo‘yishda, uning uzoq umr ko‘rishi, ko‘z tegmasligi, chaqaloqdagi belgilar, qachon tug‘ilgani kabi holatlar inobatga olinadi. Xususan, Pardavoy, Qamarxon, Hilol, Karomatxon, Mo‘tabarxon, Ziyod botir, Sangandoz botir kabi ismlarni misol sifatida keltirish mumkin. Xalq ertaklarida mavjud antroponim birliklarni aniqlash, bu birliklarning xalq ertaklaridagi o‘rnini belgilash, tilshunoslik jihatlarini tadqiq qilish muhim masalalardan biridir. O‘zbek xalq ertaklarida antroponimlarni quyidagicha mavzuiy guruhga ajratish mumkin:

1. Kasb, mavqe, mansab va unvon bilan bog‘liq bo‘lgan nomlar:

Dehqonbobo, podachi, savdogar, so‘fi, hammol, podsho, karvonboshi kabilar.

Masalan, Dehqon bobo oltmishdan oshgan soch-soqol oqargan kishi ekan. (Halol mehnat 30-bet). Podshoni Yaman viloyatida Xo‘ja Asad degan karvonboshi oshnosi bo‘lar ekan. (“Uch avliyo” 11bet). Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir podsho bo‘lgan, podshoning o‘ng qo‘l vazirning oti Hasanumaynamoz, chapqo‘l vazirining oti Paxtak ekan. (Podshoning mot bo‘lishi 17-bet). Qadim zamonda Sharq mamlakatlarining birida Ahmadjon degan savdogar bo‘lgan ekan. Uning Hasan degan o‘g‘li, Hurliqo degan qizi bor ekan. (“Hasan va Hurliqo” 52-bet).

2. Laqab, taxalluslar asosida hosil bo‘lgan nomlar:

Quyosh yerining pahlavoni, Ayiqpolvon, Bo‘ri ko‘sa, Soqi mumsik, Boqi mumsik, Jovur chol. Masalan, Besh –olti yil ichida Rustamning hamma yoqqa dong‘i ketibdi. Cho‘ponlar orasida Ayiqpolvon degan nom bilan shuhrat topibdi. (“Quyosh yerining pahlavoni” 114-bet). Bunga dalil mana bu nosqovoq, men uni taniyman. Bu nosqovoq Salimboyning jiyani Bo‘ri ko‘saniki. (“Quyosh yerining pahlavoni” 123-bet). Odamlar Ziyod botirga “Sangandoz botir” deb nom beribdilar. (“Ziyod botir” 203-bet). Bukri devni o‘ldirgan, odamxo‘r ajdahoni o‘ldirgan, sizlarni ofatdan qutqarib baxtli hayot eshigini ochgan, o‘zlaringiz doston qilib to‘qib yurgan Quyosh yerining pahlavoni – Rustam o‘tinchi shu bo‘ladi, – debdi. (‘Quyosh yerining pahlavoni” 129-bet). Bir zamonda Soqi mumsik bilan Boqi mumsik degan ikki kishi yashagan ekan. Ular o‘taketgan mumsik(hasis) ekanlar. Bir-birlariga suvni ham ravo ko‘rmas ekanlar. Shuning uchun xalq ularning nomiga mumsik so‘zini laqab sifatida qo‘shib aytadigan bo‘libdi. (“Soqi mumsik bilan Boqi mumsik” 34-bet).

3. Hayvon, qushlar va boshqa mavjudodlar nomiga asoslangan ismlar:

Sherbadan, Ayiqpolvon, Arslon, Qo‘ng‘izbeka, Bo‘ri ko‘sa, Laylakvoy: Masalan, Voy otasi, kelib qoldingizmi? Mana, o‘g‘lingiz Sherbadan ham sakkiz yoshga to‘ldi.(“Halol mehnat” 38-bet). Cho‘ponlar orasida Rustam Ayiqpolvon degan nom bilan shuhrat topibdi. (“Quyosh yerining pahlavoni” 115-bet). Bunga dalil mana bu nosqovoq Salimboyning jiyani Bo‘ri ko‘saniki debdi. (“Quyosh yerining pahlavoni” 123-bet).

4. Ranglar asosida hosil bo‘lgan ismlar:

Oqbilak oyim, Qoraxon, Qorabotir, Qoravoy karvonboshi: Masalan, Oqbilak oyim uydan chiqib kelgan kishining kallasini qilich bilan uzib tashlaydi. (“Qilich botir” 171-bet). Makkor kampir esa bir zumda Qoraxon podshoning shahriga yetibdi, o‘rdaga borib, podshoga ta’zim qilibdi. (“Qilich botir” 175-bet). Yo‘lda uchovlon qo‘shiq aytib, o‘yinga tushib ketishayotgan ekan, uzoqdan bir ko‘k yoldor bo‘ri ko‘rinibdi. (“Mushuk, it, sichqon” 181-bet). Bolam, hamma vaqt Qoravoy karvonboshining gapiga quloq soling. Nima desa o‘shani qiling. (“Uch avliyo” 11-bet).

5. Samo va osmon jismlari asosida hosil bo‘lgan nomlar:

Zuhra, Mohipari, Qamarxon, Zumrad, Oyparcha. Masalan, Mening ismimni Mohipari deydirlar deb boshidan o‘tganlarni menga aytib berdi. (“Hasan va Hurliqo” 98-bet). Mana shu mahbuslar orasida Siddiq yamoqchining qizi Zuhra ham bor emish. (“Quyosh yerining pahlavoni” 138-bet). Qamarxonning qirq kanizi bo‘lib, uning boshlig‘i Humoyun degan bir qiz ekan. (“Ziyod botir”205-

bet). Bu yerda chol va uning Zumrad degan qizi, o‘gay ona hamda uning Qimmat degan arzanda qizi yashar ekanlar. (“Zumrad va Qimmat” 244-bet).

6. Fasllar, oylar, kunlar asosida hosil bo’lgan nomlar:

Tongguli, Navro‘z qaroqchi. Masalan, Mening ismim Tongguli. Buni faqat men emas, butun xalq biladi, sizni qancha vaqtlardan beri xalq intizorlik bilan kutadi. (“Quyosh yerining pahlavoni” 127-bet). Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, Navro‘z qaroqchi degan bir o‘g‘ri bor ekan. (“Navro‘z qaroqchi” 70-bet).

7. O‘simlik, gul va daraxt nomlari asosida hosil bo‘lgan nomlar:

Sarvigul, Gulbahor, Gulasal. Masalan, Podshoning qirqta xotini bor ekan. Ularning ichida Sarvigul degani juda chiroyli ekan. (“ Kanizak bilan podsho” 42-bet). Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir podachi chol bilan kampir bor ekan. Ularning Nasiba, Gulbahor, Zulfiya degan uch qizi bo‘lar ekan. (“Hasan va Zuhra” 55-bet). Qo‘chqor ko‘knori shunga sovchi yuborib, qaliniga puli-molni katta berib Gulasalxonni unashtiribdi. (“Uch ko‘knori” 95-bet)

8. Ish-qurol, uy-ro‘zg‘or buyumlari asosida hosil bo‘lgan ismlar;

Boltaboy, Teshaboy, Masalan, Boltaboy chelaklarni suv bilan to‘ldirib bo‘lgach, o‘tin yoribdi. (“Xafa bo‘lish yo‘q-a?”). Boltaboy akasi Teshaboyni ochlikdan o‘ldirgan zolim boydan o‘ch olish uchun boyning hovlisiga qarab yo‘l olibdi. (“Xafa bo‘lish yo‘q-a?”).

9. Olloh nomi va diniy, afsonaviy tushunchalar asosida hosil bo‘lgan nomlar: Hazrat Ali, Xizr bobo, Xoliqberdi, Semurg‘, Mohipari, Pari, Yalmog‘iz kampir, Dev. Qo‘rqmasdan ichkariga kir. Hazrat Alidan qolgan bir miltiq o‘qi bilan osig‘liq turibdi. (“Besh qiz” 94-bet). Bir vaqt bir katta Semurg‘ qush uchib kelib, meni ko‘tarib olib ketdi. (“Besh qiz” (97-bet). Shu payt Xizr bobo Hurliqoning oltin kokilli o‘g‘lini va akasi kesib tashlagan ikki qo‘lini olib kelib, uni uyg‘otibdi. (“Hasan va Hurliqo” 60-bet). Men ham boshimdan o‘tganlarni aytib, Mohiparidan menga turmushga chiqishini so‘radim. (“Besh qiz”98-bet). Shaharda Xoliqberdi boyvachcha degan juda katta boy bor ekan. (“Uch ko‘knori” 95-bet).

Xulosa qilib aytganda, xalq ertaklaridagi antroponimlarning mazmun-mohiyati, semantik tabiati, uslubiy ifoda xususiyatlarini tahlil etish orqali o‘zbeklarning tarixi, urf-odatlarini, an’analari, madaniyatini, jtimoiy-madaniy turmush tarzini, e’tiqodiy tushunchalarini, milliy mentalitetini anglashga imkon beradi.

(Uch og‘ayni botirlar. “Qirq kuyov”, 216-217-b.).

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. –Тошкент: Фан, 2013.
2. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: ЎзМЭ, 1998.
3. Подолская Н.В. Словар русской ономастической терминалогии. М: Наука,1988.
4. Вавеловский С.В. Ономастикон. – М: Наука, 1971.
5. Йўлдошев Б. “Ўзбек ономастикаси масалалари” танланма фанидан услубий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011.
6. Суперанская А.В. Обшая теория имени собственного. – М: Наука 1973.
7. Стеблин-КаменскийМ.И. Спорное в язикознании. – Л: Наука, 1974.
8. Береши Ф.М. Головши Б.Н. Обши язикознание. – М. Висшая школа. 1979.
9. Эсперсен О. Философия грамматика. – М. 1958.
10. Суперанская А.В. Обши теория имени собственного. – М. Наука, 1973.
11. Umurkulov Z. B. LEXICAL MEANS EXPRESSING COMPARISON //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 11. – С. 237-240.